



## VAQTNING INSON HAYOTIDAGI TUTGAN O'RNI

**Iskandarova Nilufar Toxirovna**

*Ilmiy rahbar*

**Karimova Marjona Baxriddin qizi**

**Begimqulova Mahliyo**

**Madaminov Hoshimjon**

*SamDCHTI, Xorijiy tillar adabiyoti ta'limida ingliz tili yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** Oltindan qadrli ,javhardan qimmatli bir narsa bo'lsa ,u ham bo'lsa vaqtdir.Vaqt bizning har turli ishni qilishga kuchimiz yetadigan fursatdir.Biz soatning bekor o'tgani ixtiyorimizda bo'lgan fursatning zo'ye bo'lganini bildiradi.Holbuki, shu fursat ichida foydali ishlarga ixtiyorimiz bor edi.Fursatni g'animat bilgan odam vaqtidan unumli foydalana oladi.Vaqt qadrini bilgan havoyi nafsdan tiyila oladi.Vaqt qadrini bilgan odam buyuk bo'lishga haqlidir.Aqlsizlikning eng yomon ko'rinishi -vaqtni bekor o'tkazishdir. Bu maqolada vaqtning mezonlari,ortga qaytarib bo'lmas onlari ,oltiga teng fursatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Zero, bu maqola orqali vaqt tushunchasini anglab yetishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Vaqt nima?, vaqtning ahamiyati, insonlar hayotidagi o'rni, ulug' ajdodlarimiz nazlida vaqt qadri, Islom dinida-vaqt tushunchasi.

“Inson hayotidagi vaqt nima,uning mohiyati nimada?” degan savollarga donolar shunday javob beradi: “Vaqt-go'yo hayot kiyimi to'qiladigan iplar bo'lib,uning pishiq va nafisligiga qarab hayot aziz hamda bebaho bo'ladi”. Agar iplar sifatsiz va to'zigan bo'lsa hayot ham tuban, mazmunsiz kichadi. Vaqtning yana bir xususiyati-agar u o'tib ketsa, qaytib kelmaydi.U inson sarf qiladigan asosiy dastmoyadir. Qanchalik ko'p bo'lsa ham ozdir.Barakali bo'lsa,ko'p.Shu bois ham inson o'z hayotining har bir daqiqa va lahzasidan unumli hamda barakali foydalanib, uni yaxshi amallar qilishga sarflashi lozimdir.

Bizning dinimiz bo'lgan Islomda ham yalqovlik,kabi illatlardan uzoqda bo'lishimiz ta'kidlanadi va har kuni erta turishga , hayrli amallarni qilishga hamda yoshlik ,sihatsalomatlik,bo'sh vaqtini g'animat bilishga chorlaydi. Ulug' ajdodlarimiz kunlarini,vaqtu soatlarini foydali ish qilishga , go'zal ahloqiy va ilmiy darajalarga yetishish yo'lida sarflashga urinar edilar. Shuning uchun ham ularning bugunlari kechagisidan, ertangi kunlari bugungisidan a'lo bo'lardi. Ular: “Vaqt qilichdir ,agar sen uni kesmasang u seni kesadi,”- degan hikmatli so'zga amal qilishgan , mening nazlimda. O'tayotgan kunimiz, vaqtimizdan ibrat olmog'imiz lozim. Zero, kecha va Kunduz yangilarni eskirtiradi, uzoqlarni yaqin qiladi, umrlarni qisqrtiradi, yoshlarni qaritadi, keksalarni boqiylik sari yetaklaydi. Dono xalqimizda bir maqol bor, unda



shunday deyiladi: "Vaqtning ketdi, baxting ketdi." Ha, vaqt go'yo ulug' omaddir. Farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasiga e'tiborimizni kuchaytirib, ta'lim dargohlarida olayotgan bilimni tekshirib turish lozim. Farzandlar maktab, kollej va o'quv yurtlariga borib kelay deganda ota-onasi kelajagi mevasi bo'lmish jigarbandini oldidan duo qilib kuzatadi. Ayrim farzandlar inson hayotidagi vaqtini g'animat bilmasdan bilim olish o'rniga turli xil internet klublarga borib vaqtini isrof qilib bormoqda.

Muhtaram yurtboshimiz ham bugungi kun yoshlarini kitobxonligi pasayib ketganligini ta'kidlab o'tdilar.

Jamiyatimizdagi barcha insonlar, ular kim va qanday mavqega ega bo'lmasinlar, vaqt- barcha uchun barobardir. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarni esa, oltindan qimmat bo'lgan ne'matdan unumli foydalanishlari lozimligini anglashlari kerak.

Inson har tong yangi kunni qarshi olar ekan uning ixtiyoriga 24 soat vaqt beriladi. Bu unga har kuni beriladigan 1440 daqiqa yoki 86400 soniyalik fursatdir. O'tayotgan vaqtimiz haqida tafakkur qilib ko'radigan bo'lsak, soat millarining "chiq-chiq"lari, aslida aziz umrimizning to'xtovsiz parchalanib ketayotgan onlari ekanini his etamiz. Ushbu onlar bizning yaxshi yo yomon amallarimizga guvoh bo'lib o'tib bormoqda. Vaqtga e'tibor o'ta muhim bo'lganidan, dinimizda ko'plab toat-ibodatlar aniq vaqtga belgilab qo'yilgan. Bir kunda ado etish lozim bo'lgan besh vaqt namozga alohida vaqt belgilangan. Ularni jamlab bir vaqtning o'zida ado etish mumkin emas. Chunki ularni belgilangan vaqtda ado etish farzdir. Bu esa vaqtning ahamiyatli ekanini bildiradi. Ro'za tutish ham aniq vaqtga, Ramazon oyiga belgilab qo'yilgan. Shu oydan boshqa yilning hamma oylarida ro'za tutilsa ham, Ramazon ro'zasining o'rniga o'tmaydi. Chunki Ramazon ro'zasi bo'lishi uchun shariatda belgilangan aniq vaqtda ro'za tutish shart. Bu ham vaqtning ahamiyatli ekanini bildiradi.

Haj ibodatini ado etishda ham vaqt, ya'ni arafa kuni Arofatda turish belgilab qo'yilgan. Shu vaqtdan tashqari yilning boshqa hamma kunida Arofat tog'ida turilsa ham, haj hisoblanmaydi. Chunki haj bo'lishi uchun shariatda belgilangan aniq vaqtda Arofat tog'ida turish shart. Bu ham vaqtning ahamiyatli ekanidandir. Bu ro'yxatni yana uzoq davom etkazish mumkin. Dinimizda ibodatlarning aniq vaqtlari ta'yin qilib qo'yilgani musulmon kishini vaqtga rioya qilishga hamda qat'iy tartib va intizom bilan yashashga o'rgatadi. Shuning uchun ham dono xalqimiz vaqtga e'tiborli bo'lishni ta'kidlab shunday deganlar:

Har bir ishning vaqti bor,

Vaqt bilganning baxti yor.

Agar vaqtning ahamiyati haqida tafakkur qiladigan bo'lsak, ularning naqadar g'animat lahzalar ekanligi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. O'tib ketgan vaqt hech



qachon qaytmaydi va uning o'rnini ham to'ldirib bo'lmaydi. O'tayotgan har bir vaqt inson hayotining bir qismidir. U qiyomat kuni insonning foydasiga yo zarariga guvohlik beradi. Shuning uchun musulmon kishi o'tkazayotgan vaqtini ziyrak tijoratchi kabi sarhisob qilib borishi lozim. Har kun, hafta, oy va yilda har bir inson o'tayotgan vaqtida nimadan foyda ko'rgani, nimadan zarar ko'rgani, foyda qancha bo'lgani, zarar qancha bo'lgani, umumiy qilib aytganda sarhisobini chiqarishi lozim. Chunki tijoratchi yo'qotgan molini yana ortig'i bilan qo'lga kiritishi mumkin. Ammo vaqtini yo'qotgan inson esa uni qayta qo'lga kiritishi aslo mumkin emas.

Ulamolar o'tayotgan vaqt haqida shunday deganlar: "Vaqt betaraf bo'lmaydi, yo senga qadr don do'st yoki ashaddiy raqib bo'ladi. Ya'ni o'tgan vaqt insonning yo foydasiga yoki zarariga hujjat bo'ladi. Har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan hayoti davomidagi vaqtni turlicha taqsimlaydi. Bu esa insonlarning qanday fikrlashiga va vaqtni qanday tafakkur qilishiga bog'liq. Shunday ekan, biz vaqt deb ataydigan hayot timsolini, har bir inson hayotida turlicha o'rni bor.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, vaqt nafaqat sog'lik balki boylik topishda ham eng muhim hisoblanadi. Biz sarflagan pulimizni topishimiz mumkin, ammo yo'qotgan vaqtimizni qaytarib ololmaymiz. Demak, bu vaqtni puldan ko'ra, boringki barcha narsalardan ko'ra qimmatliroq ekanligini anglatadi. Har nafasimiz, har kunimiz uchun Allohga shukur qilib, uni qadriga yetaylik. Chunki bu vaqt barchamiz uchun omonatdir. Yoshi ulug'larimiz, muhtaram ota-onalar farzandlar ta'lim-tarbiyasiga beparvo bo'lmasliklari, vaqtlarini to'g'ri sarflashga o'rgatishlari kerak. Chunki bugungi kunimiz va porloq kelajagimiz, ana shunday salohiyatli farzandlar qo'lidadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.naqshband.uz>
2. <https://xojabuxoriy.uz>
3. @VAQTQADRI.
4. <https://sciencebox.uz>
5. <https://kitoblardunyosi.uz>